

## INSONNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Joldasbaeva Ramuza Kuvatbaevna*

*Mengalieva A, Qutibaeva A*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti 1 S ximyo talabalari:*

Odamning individualligi - har bir individning betakrorligidir. Inson u o'zining atrofidagi ijtimoiy borliqdagi biror guruhga mansub bo'lsa ham o'zining mustaqilligini yo'qotmaydi, o'zligiga ega sub`ekt sifatida saqlanib qoladi.

Individual o'zlik individuallikning barcha belgilarida aks etadi. Biroq individuallik betakrorligining tub mohiyati individning tashqi qiyofasi bilan bog`liq bo'libgina qolmay, balki faoliyat sub`ekti sifatida o'ziga xos uslublarda ham namoyon bo'ladi. Individuallikni kishining jamiyatdagi hayot tarzining alohida shakli deb atash mumkin. Shaxs va individuallik tushunchalarini taqqoslar ekanmiz, ularni bir qatorga qoyib bo'lmaydi, chunki individuallik shaxsning bir xususiyatidir.

Shaxs tushunchasida odamning alohida individ sifatida ijtimoiy ahamiyatga ega xislatlari aks etadi. Biroq shaxsning mohiyati ijtimoiy munosabatlari personifikatsiyasi (shaxslashuvi) bo'lsa, alohida shaxs o'zining ijtimoiy mohiyatini individuallik shaklida namoyon etadi. Individuallikda o'z qiyofasini yaratadi, o'z hatti-xarakterlarining "muallifi"ga aylanadi. "Agar shaxs inson xususiyatlari tarkibining eng yuqori "cho'qqisi" bo'lsa, u holda individuallik shaxs va faoliyat sub`ektining eng chuqur tuzilmasidir. Individuallikdan, o'zligidan xoli shaxs mavhum va real mavjud bo'la olmaydi.

Agar inson individi o'zining ijtimoiy mohiyatini o'zlashtirmay turib shaxs bo'la olmas ekan, u holda individuallikka ega bo'lmay turib o'z borlig`ini ham topa olmaydi. Shunday qilib, shaxs o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy, yashash usuliga ko'ra individualdir. Unda ijtimoiylik va individuallik, mohiyat va mavjudlikning birligi mujassamdir. Shaxs va individuallik tushunchalari nafaqat o'zaro bog`liq, balki bir-birini o'zaro ta'minlaydi ham. Odam shaxsi sifatlarining shakllanishi o'zini-o'z anglash bilan o'zaro aloqadordir. Alohida olingan shaxsning xulq-atvori, o'zining ijtimoiy rol va vaifalariga munosabati uning individual ongi, riovjlanish darajasi

hamda individual xususiyatlariga bogʻliqdir. Shunday qilib, individuallik, nafaqat shaxs bilan aloqador, balki uning eng muhim xislatini ham tashkil etadi. Shuning uchun u ham shaxsning taʼrifi tarkibiga kirishi kerak.

Individuallik tushunchasi toʻlaligicha shaxs tushunchasi bilan mos kelmaydi. Agar shaxs tushunchasi odamning ijtimoiy jihatlarini, ijtimoiy mazmunini ifodalasa, ijtimoiy maqomi va qadriyatlarini aks ettirsa, individuallik tushunchasi uning turmushi shakli va usullarini ochib beradi. Tabiiy xususiyatlar oʻz-oʻzidan individuallikni shakllantirmaydi. Odam individi individuallikka aylanishi uchun u “birlik”, “nusxa” boʻlishdan toʻxtab oʻz borligʻida - mustaqillikka ega boʻlishi kerak. Individuallik – bu alohida shaxsning muhim shakllangan xususiyati boʻlib, u tabiiy va ijtimoiy xossalarning, ong va faoliyatning birligidir.

Shunday qilib, individuallik predmetli olamda, tabiatda va kishilik jamiyatida namoyon boʻladi. Shunga muvofiq tarzda uning uchta: predmetli, biologik va ijtimoiy shaklini farqlash mumkin”.

Individuallikning eng muhim taʼrifiga koʻra, u alohida odamning oʻzligini aks ettiradi. Shaxs tushunchasi odamni ijtimoiy mazmunini ifodalasa, individuallik tushunchasi uning hayot uslubi va shakllarini aks ettiradi. Individuallik tushunchasi odamning individuallashuv jarayoni oʻzligi va betakrorligining shakllanishi va rivojlanishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Umuman olganda, shaxsning individualligi hayoti davomida jamiyatda oʻzlashtirib boriladigan, qadriyatlar ierarxiyasida moʻljall olishni taʼminlaydigan, motivlar kurashi paytida xulq-atvorini naorat qila oladigan, muloqot va faoliyat jarayonida, boshqalarda va oʻz-oʻzida zohir boʻladigan mazmunli munosabatlar va yoʻl-yoʻriqlar yigʻindisidir.

Shveysariyalik psixolog J.Piaje (1896–1980) insonning kamol topishini bir nisha davrlarga ajratib oʻrganishni tavsiya qiladi:

1. Bola – tashqi muhit - maʼlumotlarni qayta ishlash.
2. Tafakkur: a) ijtimoiy davrgacha; b) ijtimoiy davr.
3. Intellekt (aql); a) sensomotor – 2 yoshgacha; b) operatsional davr – 2– 7(8) yoshgacha; v) yaqqol operatsiya davri – 7(8)–11(12) yoshgacha; g) rasman (formal) operatsiya davri –11(12)–15 yoshgacha.

AQSHlik psixolog J.Bruner shaxsning tarkib topishi bilan ta'lim o'rtasida ikkiyoqlama aloqa mavjudligini aytib, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvi jarayonini tezlashtiradi, deb uqtiradi.

Shu tariqa Yosh davrlari psixologiyasi fani qator rivojlanish bosqichlaridan o'tib, bugungi darajasiga erishdi. Uning rivojlanganiga O'rta Osiyo allomalari, yaqin va uzoq shet ellar psixologlari munosib hissalarini qo'shdilar. Yuqorida aytilgan nazariyalar, amaliy va ilmiy ma'lumotlar, tadqiqotshilar yaratgan metodikalar o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

### Yosh davrlari davrlarini tabaqalash nazariyalari

Psixologiya fanida Yosh davrlari ni davrlarga tabaqalash bo'yisha qator mustaqil nazariyalar mavjud, ular inson shaxsini tadqiq qilishga har xil nuqtai nazardan yondashadi va muammoning mohiyatini turlisha yoritadi. Ularga biogenetik, sotsiogenetik, psixogenetik, kognitivistik, psixoanalitik, bixevioristik nazariyalarni kiritish mumkin.

Shaxs - muayyan jamiyatning a'zosi bo'lib, u psixologik jihatdan taraqqiy yetgan, o'z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'yekti va ob'yekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga yerishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon yetish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari. Muayyan bir yosh davriga

xosbo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola organizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniy ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki g'ayratsizligi,

yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual - o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish

muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlaming bir-biriga munosabati»

ma'nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, inson shaxs sifatida tug'ilmaydi, balki vaqt o'tishi bilan bo'ladi va ko'pchilik psixologlar bunga qo'shiladilar. Maklakov o'zining "Umumiy psixologiya" kitobida "shaxsning rivojlanishi qanday qonuniyatlarga bo'ysunadi, degan savolga turlicha qarashlar mavjud. Bu nomuvofiqliklar jamiyat va ijtimoiy guruhlarining shaxs rivojlanishidagi ahamiyatini, shuningdek, rivojlanish qonuniyatlari va bosqichlarini, shaxs rivojlanishidagi inqirozlarni, rivojlanish jarayonini tezlashtirish imkoniyatlarini va

boshqa masalalarni boshqacha tushunish natijasida yuzaga keladi.

Shaxsning turli xil nazariyalari mavjud bo'lib, ularning har birida shaxsni rivojlantirish muammosi o'ziga xos tarzda ko'rib chiqiladi. Masalan, psixanalitik nazariya rivojlanishni inson biologik tabiatining jamiyat hayotiga moslashishi, muayyan himoya mexanizmlari va ehtiyojlarini qondirish usullarini ishlab chiqish deb tushunadi.

Ijtimoiy ta'lim nazariyasi shaxsni rivojlantirish jarayonini odamlar o'rtasidagi shaxslararo o'zaro munosabatlarning muayyan usullarini shakllantirish sifatida ifodalaydi. Gumanistik va boshqa fenomenologik nazariyalar uni “men”ga aylanish jarayoni sifatida izohlaydi. Biroq, shaxsni rivojlantirish muammosini u yoki bu nazariya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish bilan bir qatorda, shaxsni turli nazariyalar va yondashuvlar nuqtai nazaridan yaxlit, yaxlit ko'rib chiqish tendentsiyasi mavjud. Ushbu yondashuv doirasida shaxsning barcha tomonlarini muvofiqlashtirilgan, tizimli shakllantirish va o'zaro bog'liq holda o'zgartirishni hisobga oladigan bir nechta tushunchalar shakllantirildi. Ushbu rivojlanish kontsepsiyalari integrativ tushunchalar deb ataladi.

Shaxs muammosiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan boladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi.

Ya'ni Ijtimoiy psixologiya, avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasida olgan ta'sirlari uning ongida qanday aks topishini o'rganadi. Guruhning shaxs psixologiyasiga ta'siri qay yo'sinda sodir bolishi ijtimoiy psixologiyada sotsializatsiya muammosi bilan uzviy bog'liq bo'lsa, bu ta'sirlarning shaxs xatti-harakatlari, xulqida bevosita qanday namoyon bolishi

ijtimoiy yo'l-yo'riqlar muammosi bilan bog'liqdir.

Ana shular asosida shaxsda shakllanadigan fazilatlar va ularning turli tipdagi shaxslarda namoyon bolishini aniqlagan holda, shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarni ishlab chiqish Ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. G'oziyev E. G. Umumiy psixologiya. Toshkent 2002
2. Ivanov P.I. Zufarova M. Umumiy psixologiya T. 2008.
3. Shoumarov G'.B. "Oila psixologiyasi". Toshkent. "Sharq".2008.
4. G'oziev E. Psixologiya. T. 2008.
5. Haydarov F., Halilova N. Umumiy psixologiya. T.2010.
6. Д.Б.Эльконин. Избранные психологические труды. М. Педагогика. 1989.
7. Zamonaviy maktab o'qituvchisi psixologiyasi. — T.: TDPU nashriyoti, 1997.
8. Umumiy psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya. Gomezo tahririda. — T.: «Sharq», 1982.